



## KONSTITUTSIYA BAXTIMIZ QOMUSI

**Mamadayupova Vasila Shonazarovna**

Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5775608>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01 - dekabr 2021

Ma'qullandi: 05 - dekabr 2021

Chop etildi: 10 - dekabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

*Konstitutsiya, O'zbekiston Respublikasi, modda, bob, mustaqillik.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada bosh qomusimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, uning tashkil topishi, bo'lim va boblari uning mustaqilligimizda tutgan ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, islohotlarning ilk davri O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan boshlandi, inson erki, ozodligi mamlakat ixtiyoriga o'tdi. Bundan tashqari, inson huquqlari bo'yicha ombudsmanlik faoliyati, Milliy markaz, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutlarining tashkil etilishi milliy qonunchiligimizni rivojlantirishga yo'naltirilgan muhim qadam bo'ldi. Yurtimizda jahon ta'lim standartlariga mos o'quv maskanlari, kollej, litseylar, yangi tipdagi, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan maktablar barpo etilishi, yoshlarimizni tom ma'noda barkamol inson bo'lib shakllanishiga asos bo'lmoqda. Haqiqiy demokratik, fuqarolik jamiyatida adolatli, eng muhimi, insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qiladigan insonparvar qonunlar hukmron

bo'lmo'g'i darkor. O'zbekiston ham boshqa rivojlangan mamlakatlar qatorida ildam qadam tashlab nurli kelajakka intilib bormoqda. Davlatimizning qonun va ramzlari tarix sahifalariga bitildi. Milliy qomusimiz - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingach, qator yillar davomida, jumladan, 2002-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan referendum natijalariga ko'ra unga turli o'zgatishlar, shuningdek, 2003-yil 24-aprelda XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga ko'plab tuzatish va qo'shimchalar kiritildi.

Faxr va g'urur bilan aytish lozimki, yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar bevosita qonun ustuvorligi tamoyiliga asoslangan. Jamiyatda tenglik va adolatga yo'l ochildi. Qonun xalq hokimiyatini amalga oshirish, jamiyatni boshqarish, davlat va fuqarolar o'rtasida



ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi ekan, huquqiy davlatning quroli ham, himoyachisi ham, qalqoni hamdir. Yoshlarning huquqiy ongini o'stirish, huquqiy madaniyatini shakllantirish va ularni qonunga hurmat-e'tibor ruhida kamol toptirish orqali yuksak, ezgu maqsadlarga erishishimiz mumkin. Zero, birinchi prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishi lozim". Mamlakatimizning huquqiy demokratik davlat qurish sari dadil harakatlarni qonun chiqaruvchi organ (parlament) faoliyatini takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan islohotlar timsolida ko'rish mumkin. Ta'kidlash joizki, qonunlarni ishlab chiqishda ko'p asrlik milliy huquqiy me'ros va qadriyatlarimizga tayangan holda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari barobarida, rivojlangan demokratik davlatlarning huquqiy tajribalarini atroflicha o'rganilgan va buning natijasida haqiqiy sharqona, o'zbekona yaratuvchanlik yo'li shakllanganligini faxr bilan e'tirof etsak arziydi.

Qomusimizning mukammalligi va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, ijtimoiy turmushni tartibga solish, jamiyatning barcha jabhalaridagi faoliyatlarni ulug' maqsadlar sari yo'naltirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Mustaqillik - adolat hukmronligi, qonunga barcha birdek teng amal qilishini ta'minlash demakdir. Aynan istiqloq davrida qonunchilik va qonun ijodkorligining milliy huquqiy mexanizmlari yaratildi. Aholining

dunyoqarashi, huquqiy ongi va siyosiy bilim darajasi ortdi.

Mamlakat huquqiy tizimidagi barcha qonunlar poydevori sifatida Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. Unda bayon etilgan tushunchalar shu qadar ahamiyatliki, bu har bir fuqaroning turmush faoliyati bilan bog'langan. Jamiyatda qonunlarnig o'rni, ahamiyati va vazifasini kengaytirish, unga amal qilishni aholi turmush tarziga aylantirish fuqarolik jamiyatining beqiyos afzalligidir. Bobokalonimiz Amir Temur ta'kidlaganidek "Qonun hukmron joyda erkinlik bo'ladi". Darhaqiqat, insonlar belgilangan tartib-qoidalarga amal qilsa, ularning ishlari adolatli hal etiladi, jamiyatda erkinlik va sog'lom huquqiy muhit shakllanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'z asarida: "Biz hali Konstitutsiyamiz fuqarolarga bergan huquqlarni amalga oshirish uchun ko'p ish qilishimiz kerak"- , deb ta'kidlab o'tgan edilar. Bu fikrlar orqali mamlakatimizdagi har bir fuqaroning huquq va muhofazasi ta'minlanganligi hamda uni yanada kuchaytirish haqida bayon qilinadi.

Bosh qomusimizda belgilanganidek, har bir shaxs erkin ijod qilish, ilm olish huquqiga ega. Konstitutsiyaning 42-moddasida ham: "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi", - deya ta'kidlanadi. Ijodkor shaxslarni qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dodini yanada rivojlantirish va kamol toptirish uchun har bir viloyat, tuman va shaharlarda yoshlar markazlari va Bolalar ijodiyot uylari, "Umid" jamg'armasi tashkil etilishi ezgu ishlar misolidir. Ushbu muassasalar taqdim etayotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan har



bir shaxs ulkan yutuqlarga erishishi ham hech kimga sir emas.

Shuningdek, bosh qomusimizda umuminsoniy qadriyatlar va xalqaro huquqning eng muhim me'yorlari mujassamlangan. Unda, ayniqsa, insonni, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgani e'tiborga loyiqdir. Bizning o'zbekona milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizdan kelib chiqqan holda, Konstitutsiyaning alohida XIV bobi oila masalalariga bag'ishlangani va bu konstitutsiyamizning o'ziga xos xususiyati ekanligini faxr bilan aytishimiz mumkin. Darhaqiqat, hayotning abadiyligi, avlodlar davomiyligi va barkamolligini ta'minlaydigan, milliy urf-odatlarimizni asrab-avaylab, kelgusi avlodlarga yetkazadigan muhim tarbiya maskani, bu shubhasiz oiladir. Bosh qomusimizning

“Oila” bobi 64-moddasida quyidagi so'zlar o'z aksini topadi: “Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar”. Mamlakatimizda dunyoga kelgan har bir farzand, albatta, ota-ona bag'rida o'sib kamolga yetishi lozim. Konstitutsiyamizning hayotbaxsh va insonparvarligi shundaki, ne-ne orzuniyatlar bilan farzand tarbiyalayotgan insonlarning yaxshi yashashi, mehnat qilishini kafolatlash bilan birgalikda, ularning zimmasidagi eng asosiy vazifa – farzandlarimizning haq-huquqlari davlat muhofazasida ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan. Jamiyatning asosiy bo'lagi bo'lgan oilani saqlash, farzandlar kamolotini ta'minlash shu jamiyatda yashayotgan har bir fuqaroning insoniylik va fuqarolik burchidir

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 1-сон, 2-модда; 2015 й., 52-сон, 645-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон
2. Нажимов М.К. Норма и жодкорлиги. Дарслик. –Тошкент: ТДЮУ, 2018. – Б.81.
3. <https://uza.uz>
4. Lex.uz